

HUDUDIY SANOAT RIVOJLANISHINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Manuchehr Abduqodirov,

Angren universiteti 2 bosqich magistranti

Hududiy sanoat rivojlanishi masalasi bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, globallashuv, iqtisodiy integratsiya va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda sanoatning hududiy tashkil etilishi masalasi davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu bois, hududiy sanoat tushunchasining iqtisodiy mohiyatini aniqlash, uning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va zamonaviy ilmiy qarashlar bilan boyitish ushbu tadqiqotning muhim vazifalaridan biridir.

Hududiy sanoat tushunchasi iqtisodiy fanlarda sanoat ishlab chiqarishining ma'lum hudud doirasida shakllanishi, joylashuvi va rivojlanish qonuniyatlarini ifodalovchi muhim kategoriya sifatida talqin etiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushuncha ko'pincha hududning ishlab chiqarish salohiyati, tabiiy-resurs bazasi, mehnat resurslari va infratuzilma imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi. Hududiy sanoat faqat sanoat korxonalarining geografik joylashuvi emas, balki ularning hududiy ixtisoslashuvi, o'zaro kooperatsiyasi va hudud iqtisodiyotiga ko'rsatadigan ko'p qirrali ta'sirini ham o'z ichiga oladi¹.

O'zbekiston iqtisodiy tafakkurida hududiy sanoat tushunchasi, avvalo, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalasi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Xususan, N.G. Muminov industrial iqtisodiyot doirasida hududiy sanoatni milliy iqtisodiyotning tayanch tarkibiy elementi sifatida baholab, uning rivoji ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi.² Olimning fikriga ko'ra, sanoatning hududiy tashkil etilishi iqtisodiygina emas, balki ijtimoiy va ekologik muvozanatni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, hududiy sanoat rivojlanishini faqat ishlab chiqarish hajmlari orqali emas, balki hududda yaratilayotgan qo'shilgan qiymat, bandlik darajasi, mehnat unumdorligi va innovatsion faollik ko'rsatkichlari orqali baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

¹ Norimovich, R. A. (2024). SANOAT TARMOQLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IMITATSION MODELLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 366-372

² Muminov N.G. "Industrial iqtisodiyot": Darslik. I qism / T.: "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti, 2020., 261 bet.

O'zbekiston iqtisodchisi A.Ortiqov sanoat iqtisodiyoti masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida hududiy sanoatni hudud iqtisodiyotining lokomotivi sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, sanoat rivojlanmagan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari past bo'lib, byudjet daromadlari cheklangan, aholi bandligi esa asosan qishloq xo'jaligi yoki xizmat ko'rsatish sohalariga bog'liq bo'lib qoladi. Shu sababli, hududiy sanoatni rivojlantirish orqali hududlarning fiskal mustaqilligini kuchaytirish, mahalliy byudjet bazasini kengaytirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi³.

M.Isakov o'z ilmiy ishlarida hududiy sanoatni hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi va diversifikatsiyasini belgilovchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Olimning fikricha, sanoatning hududiy rivojlanishi bir tomondan hududning an'anaviy tarmoqlariga tayansa, ikkinchi tomondan yangi sanoat yo'nalishlarini shakllantirish orqali iqtisodiy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mono-tarmoqqa ixtisoslashgan hududlarda sanoat diversifikatsiyasi hududiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega⁴.

O'zbekistonlik iqtisodchi N.Muminov va uning izdoshlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hududiy sanoat tushunchasi klaster va sanoat zonalar bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Ularning fikriga ko'ra, hududiy sanoatning zamonaviy shakllari sifatida erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar va tarmoq klasterlari hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu mexanizmlar hududga investitsiyalarni jalb etish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va eksport salohiyatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi⁵.

Shuningdek, o'zbekiston olimi Sh.Xolmurzayev hududiy sanoatning ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, sanoat rivojlangan hududlarda urbanizatsiya jarayonlari tezlashadi, mehnat bozori faollashadi va aholi daromadlarining barqaror o'sishi ta'minlanadi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi ekologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkinligi sababli, hududiy sanoat siyosatida ekologik omillarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot miqyosida hududiy sanoat hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va o'zaro iqtisodiy bog'liqligini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Sanoat rivojlangan hududlarda yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoat ulushining yuqoriligi ushbu hududlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, investitsion jozibadorligini oshiradi va hududiy infratuzilma rivojiga turtki beradi. O'zbekiston amaliyotida Toshkent shahri va viloyati, Navoiy viloyati hamda Farg'ona

³ Ortiqov A , Isakov M , " sanoat iqtisodiyoti" O'quv qo'llanma.-T: << Iqtisodiyot>>,2019-242bet.

⁴ Ortiqov A , Isakov M , " sanoat iqtisodiyoti" O'quv qo'llanma.-T: << Iqtisodiyot>>,2019-242bet.

⁵ Muminov N.G. "Industrial iqtisodiyot": Darslik. I qism / T.: "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti, 2020., 261 bet.

vodiysi hududlarida sanoatning nisbatan rivojlanganligi hududiy iqtisodiy tafovutlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududiy sanoat milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy tarkibiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. U nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki hududlar o'rtasida iqtisodiy muvozanatni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda hududiy sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini uning bajaradigan funksiyalari orqali izohlanadi.

Birinchidan, hududiy sanoat ishlab chiqarish kuchlarini hududlar bo'yicha mutanosib joylashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon iqtisodiy resurslarning haddan tashqari markazlashuvini cheklab, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni yumshatishga yordam beradi. O'zbekistonlik iqtisodchi olim N.G. Muminov ta'kidlaganidek, sanoat ishlab chiqarishining hududlar bo'yicha nisbatan teng taqsimlanishi milliy iqtisodiyotda barqaror o'sish omili bo'lib, hududlarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytiradi va ularning ichki rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoatning faqat ayrim yirik markazlarda jamlanib qolishi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kuchaytirishi mumkin⁶.

Ikkinchidan, hududiy sanoat rivoji mahalliy xomashyo va tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. O'zbekiston hududlari tabiiy-resurs salohiyati jihatidan keskin farqlanadi. Shu bois sanoatni hududiy joylashtirishda resurs omilini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. O'zbek iqtisodiy adabiyotlarida qayd etilishicha, sanoat korxonalarini xomashyo manbalariga yaqin hududlarda joylashtirish transport xarajatlarini kamaytiradi, ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi. A. Ortiqov va M. Isakovlar sanoat iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarida hududiy sanoat rivoji xomashyoni chuqur qayta ishlashga asoslangan ishlab chiqarishlarni shakllantirish uchun zarur sharoit yaratishini alohida ta'kidlaydilar⁷.

Uchinchidan, hududiy sanoat aholi bandligini oshirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Hududlarda sanoat korxonalarining tashkil etilishi yangi ish o'rinlari yaratadi, aholining daromad manbalarini kengaytiradi va ijtimoiy muammolarni yumshatadi. O'zbekistonlik olimlar fikricha, ayniqsa mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan hududlarda sanoatni rivojlantirish ichki migratsiyani kamaytirishning eng samarali vositalaridan biridir⁸. Bu jihat mamlakat hududlarida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

⁶ Muminov N.G. "Industrial iqtisodiyot": Darslik. I qism / T.: "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti, 2020., 261 bet.

⁷ Ortiqov A, Isakov M, "sanoat iqtisodiyoti" O'quv qo'llanma.-T: << Iqtisodiyot>>, 2019-242bet.

⁸ I.S.Xotamov, G.R.Madraximova. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-T:<< Inovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi>>, 2022.252bet.

O‘zbekiston Respublikasi sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni mustaqillikdan keyingi davrda yanada yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Dastlabki yillarda sanoat ishlab chiqarishi asosan Toshkent shahri va ayrim sanoati rivojlangan hududlarda jamlangan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda hududiy sanoat siyosati izchil takomillashtirildi. N.G. Muminovning qayd etishicha, hududlarda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar mamlakat iqtisodiy tuzilmasini diversifikatsiya qilishga xizmat qilgan.

So‘nggi yillarda kichik sanoat zonalar va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi hududiy sanoat rivojlanishida muhim burilish yasadi. Ushbu zonalar orqali hududlarga investitsiyalar jalb qilinib, zamonaviy texnologiyalar joriy etildi hamda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlar yo‘lga qo‘yildi. O‘zbek olimlari bu jarayonni hududiy sanoatni rivojlantirishning institutsional mexanizmi sifatida baholaydilar. Chunki sanoat zonalar hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bilan birga, mahalliy tadbirkorlik subyektlarining faolligini kuchaytirdi.

Bundan tashqari, hududiy sanoat rivoji milliy iqtisodiyotning tarkibiy barqarorligini ta‘minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Sanoat tarmoqlarining hududlar bo‘yicha diversifikatsiyalashuvi iqtisodiyotning tashqi va ichki shoklarga nisbatan barqarorligini oshiradi. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar sanoatni hududiy rivojlantirish orqali bir hududdagi inqiroz holatining butun milliy iqtisodiyotga salbiy ta‘sirini kamaytirish mumkinligini ta‘kidlaydilar⁹.

Umumiy qilib aytganda, hududiy sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni uning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional funksiyalarining uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. U ishlab chiqarish resurslarini hududlar bo‘yicha oqilona taqsimlash, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, bandlikni ta‘minlash va hududlararo iqtisodiy muvozanatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston sharoitida hududiy sanoat rivojlanishini izchil davom ettirish milliy iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv o‘sishini ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Hududiy sanoat rivojlanishini ilmiy jihatdan tushuntirish jarayonida sanoatni joylashtirish nazariyalari markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu nazariyalar XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlari doirasida shakllangan bo‘lib, ular sanoat ishlab chiqarishini makon bo‘yicha joylashtirishning iqtisodiy qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Nazariy qarashlarning evolyutsiyasi sanoat taraqqiyoti bosqichlari, texnologik o‘zgarishlar va iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sanoatni hududiy joylashtirish bo‘yicha dastlabki tizimli ilmiy qarashlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllandi. Bu davr sanoat inqilobining ikkinchi bosqichi

⁹ I.S.Xotamov, G.R.Madraximova. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-T:<< Inovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi>>, 2022.252bet.

bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish hajmlarining keskin oshishi, transport infratuzilmasining rivojlanishi va shaharlarning sanoat markazlariga aylanishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur yo‘nalishning asoschisi sifatida Alfred Veber (1868–1958) e’tirof etiladi. U 1909-yilda chop etilgan “*Sanoatni joylashtirish nazariyasi*” asarida sanoat korxonalarini joylashtirishning iqtisodiy mexanizmini ilmiy asoslab berdi¹⁰. Veber nazariyasining markazida minimal xarajatlar tamoyili turadi. Uning fikricha, korxona joylashuvi uch asosiy omil ta’sirida shakllanadi:



Veber transport xarajatlarini hal qiluvchi omil sifatida ko‘rib, xomashyo manbalari va tayyor mahsulot bozorlariga yaqinlikni iqtisodiy samaradorlikning asosi deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u mehnat resurslarining arzonligi ayrim hollarda transport xarajatlaridan ustun kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. Aglomeratsiya samaralari esa korxonalar bir joyda to‘planganda infratuzilma, xizmatlar va bilim almashinuvi orqali qo‘shimcha foyda yuzaga kelishini anglatadi. Veber yondashuvi sanoatni joylashtirishni asosan mikroiqtisodiy xarajatlar nuqtayi nazaridan izohlagani bilan ajralib turadi.

Keyingi muhim nazariy qadam 1933-yilda Walter Christaller tomonidan ishlab chiqilgan *markaziy o‘rinlar nazariyasi* bilan bog‘liq. Ushbu nazariya sanoatni joylashtirishdan ko‘ra kengroq bo‘lib, hududiy iqtisodiy tuzilmaning umumiy modelini yaratishga qaratilgan¹¹.

¹⁰ Hewings, G. J. (2017). *Regional industrial analysis and development*. Routledge.

¹¹ Stimson, R. J., Stough, R. R., & Roberts, B. H. (2006). *Regional economic development: analysis and planning strategy*. Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg.542.

Kristaller nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat hududda tasodifiy emas, balki ierarxik markazlar tizimi asosida joylashadi. Markaziy shaharlarda yuqori darajadagi xizmatlar va sanoat jamlanadi, kichik aholi punktlari esa quyi darajadagi funksiyalarni bajaradi. Bu yondashuv sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy taqsimotini talab, bozor radiusi va aholining xarid qobiliyati bilan izohlaydi.

Kristaller nazariyasining ahamiyati shundaki, u hududiy rivojlanishni faqat ishlab chiqarish xarajatlari bilan emas, balki bozor tuzilmasi va iste'molchilarning hududiy joylashuvi bilan bog'laydi. Ushbu yondashuv keyinchalik hududiy rejalashtirish va shaharsozlik siyosatida keng qo'llanila boshlandi.

Klassik nazariyalarni rivojlantirgan navbatdagi muhim olim August Ljusch (1906–1945) bo'lib, u 1940-yillarda iqtisodiy makon nazariyasini ishlab chiqdi. Lyoshning asosiy g'oyasi shundan iboratki, sanoat korxonalari joylashuvida asosiy mezon foydani maksimalashtirish hisoblanadi.


Veber minimal xarajatlarni asosiy mezon sifatida ko'rgan bo'lsa, Lyosh bozor hajmi, talab zichligi va narxlar farqini ustuvor omillar sifatida ilgari suradi. Uning fikricha, iqtisodiy makon doirasida optimal joylashuv korxona uchun eng katta foyda keltiradigan nuqtada shakllanadi. Bu yondashuv sanoat joylashuvini mikroiqtisodiy foyda funksiyasi bilan bog'lab, klassik nazariyalarni sezilarli darajada boyitdi.

XX asrning ikkinchi yarmida sanoatni hududiy joylashtirishga oid qarashlar neoklassik iqtisodiy nazariya ta'sirida rivojlandi. Ushbu davrda hududiy rivojlanish kapital, mehnat va texnologiya omillarining erkin harakati orqali izohlandi. Neoklassik yondashuvga ko'ra, bozor mexanizmlari resurslarni samarali taqsimlab, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni vaqt o'tishi bilan kamaytiradi.

Biroq 1960–1970-yillardagi amaliy tajriba shuni ko'rsatdiki, rivojlangan sanoat hududlari tezroq o'sishda davom etar ekan, ayrim hududlar iqtisodiy jihatdan ortda qolmoqda. Bu holat neoklassik modelning cheklanganligini ochib berdi va hududiy siyosatda davlat aralashuvining zarurligini ilmiy asoslashga turtki bo'ldi.

Hududiy sanoat rivojlanishini tushuntirishdagi tub burilish 1990-yillarda yuz berdi. Bu davrda Paul Krugman, Masahisa Fujita va Anthony Venables tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi shakllandi.

Mazkur yondashuv sanoatning hududiy markazlashuvini uch asosiy omil orqali izohlaydi:



Krugmanning fikricha, sanoatning dastlab ayrim hududlarda to‘planishi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, chunki yirik bozor, malakali mehnat va infratuzilma bir joyda jamlanadi. Biroq bu jarayon uzoq muddatda hududlararo tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, davlat tomonidan hududiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan siyosat yuritilishi zarur.

Fujita va Venables esa aglomeratsiya jarayonlarining dinamik xarakterini ochib berib, sanoat klasterlari va logistika tarmoqlarining hududiy rivojlanishdagi rolini asoslab berdilar. Ushbu qarashlar bugungi kunda sanoat klasterlari, erkin iqtisodiy zonalar va hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, sanoatni hududiy joylashtirish nazariyalari evolyutsiyasi xarajatlarni minimallashtirishdan tortib, foydani maksimallashtirish, bozor tuzilmasi va aglomeratsiya samaralarigacha bo‘lgan ilmiy qarashlar tizimini qamrab oladi. Ushbu nazariyalar bugungi kunda hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda, jumladan, O‘zbekiston sharoitida hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishda muhim ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda hududiy sanoat rivojlanishi innovatsion iqtisodiyot, raqamlashtirish va sanoatning to‘rtinchi inqilobi (Industry 4.0) bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda sanoatni hududiy rivojlantirishda faqat xomashyo va arzon mehnat resurslari emas, balki ilmiy-texnik salohiyat, infratuzilma sifati va institutsional muhit muhim ahamiyat kasb etmoqda¹².

¹² Norimovich, R. A. (2024). SANOAT TARMOQLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IMITATSION MODELLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 366-372

Xorijiy tadqiqotlarda hududiy sanoat siyosati ko‘pincha klaster yondashuvi orqali izohlanadi. Maykl Porterning klasterlar nazariyasiga ko‘ra, o‘zaro bog‘liq korxonalar, ilmiy muassasalar va infratuzilma obyektlarining bir hududda jamlanishi raqobatbardoshlikni oshiradi¹³. Bu yondashuv O‘zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyat kasb etib, so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, kimyo va avtomobilsozlik sohalarida klaster tizimi joriy etildi.

Shuningdek, sanoat siyosatiga oid zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda davlatning selektiv aralashuvi masalasi muhokama qilinadi. NBER tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda sanoat siyosatining iqtisodiy samaradorligi, miqyos iqtisodiyoti va tashqi effektlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, sanoatni qo‘llab-quvvatlash choralarining YaIMga ta’siri baholanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun hududiy sanoat rivojlanishi strategik ahamiyatga ega. Mamlakat hududlari tabiiy-resurs salohiyati, demografik holati va iqtisodiy infratuzilmasi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu bois, hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqishda differensial yondashuv muhim hisoblanadi.

Masalan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari rivojlangan bo‘lsa, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida xomashyo qazib olish va qayta ishlash sanoati yetakchi o‘rin tutadi. Farg‘ona vodiysi hududlarida esa mehnat resurslariga tayanilgan sanoat tarmoqlari ustunlik qiladi. Bu holat hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirish bilan birga, sanoatni hududiy joylashtirishda muvozanatli siyosat yuritishni talab etadi.

Davlat tomonidan tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini hududiy sanoat rivojlanishini jadallashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular orqali investitsiyalar jalb etilib, zamonaviy texnologiyalar joriy qilinmoqda va hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

¹³ Stimson, R. J., Stough, R. R., & Roberts, B. H. (2006). *Regional economic development: analysis and planning strategy*. Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg.542.